

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING O'XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

Asatullayeva Mohinur

Annotatsiya: ushbu maqola shuni ko'rsatib beradiki, ingliz va o'zbek tilidagi ergashgan qo'shma gaplarni amaliyotdagi o'zaro farqini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga bu farqni anglab yetgan talabalarga ularning farqi orqali ingliz va o'zbek tilini mazmun-mohiyatini yanada tezroq o'rganishga hissasini qo'shadi. Hozir ingliz tilidagi qo'shma gaplar qoidasini, avvalo, o'zbek grammatikasining asosini chuqur o'rgangan xolda farqlash mumkin. Bu maqolada har bir tilning birma bir farqlari yoritib beriladi. Shuningdek amaliyotda misollar asosida tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: Ingliz va o'zbek tili grammatikasi, relative clauses, ergashgan va qo'shma gaplar.

Annotation: This article shows that it serves to show the mutual difference following joint statements in English and Uzbek. At the same time, students who have realized this difference will be able to learn English and Uzbek more quickly through their difference. Now the rule of compound sentences in English can be distinguished first of all by a deep study of the basis of Uzbek grammar. This article will cover the one-to-one differences of each day. Also in practice is explained on the basis of examples.

Key words: Relative clauses, adverbial clauses, Noun clauses and complex sentences.

Qo'shma gap

1. Gaplar tuzilishiga ko'ra (Grammatik asoslar miqdoriga ko'ra) 2 ga bo'linadi: a) soda gaplar b) qo'shma gaplar

2. Qo'shma gaplar soda gaplardan quyidagi jihatdan farq qiladi: a) soda gaplarning grammatik asosi bitta – qo'shma gaplarniki ikkidan ortiq; b) soda gaplar 1 ta kesimlik belgisiga, 1 ta shakllangan kesimga ega bo'ladi – qo'shma gaplarda esa 2 dan ortiq kesimlik belgisi bo'ladi; c) soda gaplar ma'lum bir fikrni ba'zan qo'shimcha ravishda his hayajonni ifodalaydi – qo'shma gaplar esa murakkabroq fikrni anglatadi;

3. Demak gaplarni soda va qo'shma gaplarga ajratishda kesimlik belgisining miqdori asos bo'lib xizmat qiladi.

4. Qo'shma gap 2 yoki undan ortiq soda gaplarning o'zaro Grammatik va mazmuniy munosobatidan tashkil topadi. Bunda:

- qo'shma gap tarkibidagi soda gaplarning **Grammatik** munosobati deganda shu soda gaplarning ma'lum bir Grammatik vositalar yordamida bog'lanishi tushuniladi.

- qo'shma gap tarkibidagi soda gaplarning **mazmuniy** munosobati deganda esa qo'shma ga p tarkibidagi soda gaplarning mazmunan muvofiqligi tushuniladi. Masalan: qish keldi **va** o'rik gulladi – bu yerda **va** bog'lovchi vosita hisoblanadi, mazmun jihatdan xato.

5. Qo'shma gapni tashkil etgan soda gaplar bilan alohida qo'llangan soda gaplar teng emas:

- alohida qo'llangan soda gaplar **grammatik, mazmun va ohang** tugalligiga ega bo'ladi.

- qo'shma gap tarkibidagi soda gaplarda esa grammatik, mazmun va ohang tugaliliga qo'shma gap oxirida namoyon bo'ladi. Shuning uchun qo'shma gap tarkibidagi soda gaplar alohida mustaqil qo'llanilgan gap emas balki bir umumiy gapning qismi hisoblanadi.

QO'SHMA GAP QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR

1. Qo'shma gapni tashkil etgan soda gaplar qo'shma gap qismlari hisoblanadi.

2. Qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar **bog'lovchi vositalar** deyiladi.

3. Qo'shma gap vositalari quyidagilardir:

a) **bog'lovchilar** – teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilar;

b) **bog'lovchi vazifasidagi vositalar:**

-bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar

-bog'lovchi vazifasidagi **bo'lsa, esa, deb** so'zlari

-nisbiy so'zlar

-ko'makchili qurilmalar: **shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, shu bois**

-fe'ning –sa shart mayli qo'shimchasi

c) **ohang**

4. Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar

3 turga bo'linadi:

a) **bog'langan qo'shma gaplar**

b) **ergashgan qo'shma gaplar**

c) **bog'lovchisiz qo'shma gaplar**

I. BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

1. Qismlari teng bog'lovchilar yoki teng bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikgan qo'shmagaplar **bog'langan qo'shma gaplar** deyiladi.

2. Bog'langan qo'shma gap quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

-teng bog'lovchilar

-teng bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar

-teng bog'lovchi vazifasidagi **bo'lsa, esa** so'zlari yordamida

3. Bog'langan qo'shma gaplar boshqa qo'shma gaplardan quyidagi vositalar bilan farq qiladi.

a) qismlari ya'ni tarkibidagi soda gaplar o'zaro teng aloqada bo'ladi

b) ular orasida tobe hokimlik bo'lmaydi

c) bosh gap, ergash gap atamaları ishlatilmaydi

d) tarkibidagi soda gaplar biri ikkinchisini aniqlab, izohlab kelmaydi

4. Bog'langan qo'shma gaplarning qolipi quyidagicha bo'ladi:

Sodda gap + Teng bog'lovchi+ sodda gap

5. Qismlari qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar o'zaro quyidagicha guruhlanadi:

a) **Biriktiruv** bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

b) **Zidlov** bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

c) **Ayiruv** bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

1. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

Yuqoridagi qoida va izohlarda biriktiruv bog'lovchilar iyordamida bog'langan qo'shma gaplarga turlicha ma'nolar tahlil qilinadi.

1. Bundayqo'shma gap qismlari o'zaro quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

a) va, hamda biriktiruv bog'lovchilari yordamida

- Ro'paradagi g'orning bag'ridan qora tutun ko'tarildi va yerdan yo'tal tovushi eshitildi.

b) biriktiruv bog'lovchisi vazifasidagi **-u, -yu, -da yuklamalari** orqali bog'lanadi

- Dekabr oyining boshida bir qor yog'di-yu keyin yana oftob charaqlab, havo ilib ketdi.

2. Bundayqo'shma gaplar orasida quyidagicha ma'no munosabati bo'ladi:

a) qismlari orasida payt munosabati bo'ladi ya'ni bir paytdayoq ketma- ket sodir bo'lgan voqealari fodalaniadi

- Eshik ochildi va Qalandarovning ozg'in yuzik o'rindi.

b) qismlar orasida sabab natija munosabati ham ifodalanishi mumkin. Bunday holda qo'shma gapning 2- qismi oldidan natija so'zini qo'llash mumkin.

Ingliz tilidagi qo'shma gap

Ingliz tilida ergashgan qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalar relative clauseslar hisoblanadi, ya'ni ular asosan payt ravishlari orqali bog'lanadi.

Masalan: I used to playing the guitar when I was 15.

Ushbu gapda when (qachonki) payt ravishi ikki gapni bog'lovchi vosita orqali ergashgan qo'shma gap hosil qiladi. Ingliz tilida biz bunday vositalarni relative clauses deb ataymiz. When (qachonki) payt ravishidan tashqari that, what, why, how, whose, who, kabi relative clauseslar mavjud va ingliz tilida ushbu payt ravishlari ergashgan qo'shma gaplarni hosil qiluvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Ushbu vositalar ergashgan qo'shma gaplarda gapning mazmunini keltirib beradi.

Masalan:

She lives in New York, which she likes.

He's the man that I met at the conference.

He's a musician whose albums have sold millions.

Ingliz tilida relative clause ya'ni qo'shma gaplarning o'zbek tiliga nisbatan anchagina farqi bilinib turadi. Asosiy farqlardan biri shundaki yordamchi so'zlarning gap boshida, o'rtasida va oxirida kelishidir. Buni bitta farqini keltirib o'tamiz.

Relative clause

Bunda if bilan ingliz tilida ergash gapli qo'shma Gap tuziladi hamda if so'zi gapning boshida ham o'rtasida ham kelishi mumkin.

If it snows tomorrow, I Will not come

I Will not Come, if it snows tomorrow.

O'zbek tilida esa **agar** so'zi gapning doim boshida keladi va quyidagicha yoziladi.

Agar ertaga qor yog'sa men kelmayman.

Shu bilan birga o'zbek tili va ingliz tili faqat shu yordamchi so'zlar bilan cheklanib qolmaydi va har birining o'z o'rni bor ular quyidagicha bo'ladi.

When-da

While-da

Till, u till-gacha, guncha

That's way-shuning uchun

In order to - uchun

So as to-uchun

In case-mumkin

If only-bo'lgan taqdirda
Although - shunga qaramay
Nevertheless-ga qaramay
But-lekin
Va boshqalar.

Jim passed his exams, **which** surprised everybody.

July is the month **when** the weather is the hottest.

I saw some people **whose cars** were stolen.

Yuqoridagi fikrlardan shuni bilish mumkinki, har qanday til gramatikasida o'zaro o'xshashliklar va farqlar mavjud. Bu farqlar va o'xshashliklarni ingliz va o'zbek tilidagi qiyosini ko'rdingiz. Bu ikki tildagi o'xshashliklar ikki til gramatikasining ergashgan qo'shma gaplarining tuzilishida ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.SardorHafizov, O.A dullayev “Ingliz tili gramatikasi” Toshkent “Yosh kuch” – 2019. (173-175) betlar.
- 2.G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q.Mahmudov “O'zbek tili tarixiy gramatikasi”, “O'zbekiston faylasuflar millay jamiyati nashriyoti” Toshkent – 2009.
- 3.Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o'zbek tili” Toshkent “Universitet” – 2006.
- 4.R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G'.Boqiyeva va boshqalar. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent – 2009. (395-408)betlar.
- 5.Robiya Qosimova, Muhammad G'apporov “Ingliz tili gramatikasi” Toshkent “Turon Iqbol” – 2019. (295-299) betlar.
- 6.Virgina Evans Jenney Deoley “Round-up”(15-16) page.
- 7.<https://arxiv.uz/uz/>